



## O‘ZBEKISTON FLORASIDA TARQALGAN LONICERA L TURKUM TURLARI

*Babayorova Gulasal Baxtiyor qizi, Abdisalomova Fayro‘za To‘ra qizi*

Toshkent shahar Mirzo Ulug‘bek nomidagi Milliy Universiteti magistr talabalari

**Annotatsiya:** Tadqiqot davomida O‘zbekistonda uchratish mumkin bo‘lgan *Lonicera L* oilasiga mansub turlarning tarqalishi, morfologiyasi va ahamiyati o‘rganildi. Toshkent botanika bog‘ida 1036 ta daraxt va o‘simliklar mavjud bo‘lib, ulardan 20 tasi *Lonicera* turidir. Ushbu turlarning sakkiztasi mahalliy, 12 tasi esa introdutsent.

**Kalit so‘zlar:** *Lonicera*, uchqatlar, o‘simlik, turkumi katalogi, rezavor meva, hujayra, kurtak.

**Kirish.** Uchqatlar uchun umumiy nom - *Lonicera* - taniqli shved taksonomisti Karl Linney (1707-1778) tomonidan XVI asrda yashagan nemis botanigi va shifokori Adam Lonitser sharafiga berilgan. *Lonicera L* asosan shimoliy yarimsharda joylashgan o‘simliklarning katta guruhi. Ularning ko‘p turlari Yevropa, Osiyo, Amerika va Shimoliy Afrikada o‘sadi, ba‘zilari Janubi-Sharqiy Osiyodagi tropik o‘rmonlarda uchraydi. Aksariyat turlarini butalar tashkil etadigan uchqatlar oilasida (*Caprifoliaceae*) uchqatlar turkumi (*Lonicera L.*) eng yirigi hisoblanadi va asosan shimoliy yarimsharda mo‘tadil iqlimli mintaqalarida tarqalgan hamda 200 ga yaqin turni o‘z ichiga oladi.[3] Shimoliy Tyan-Shan tog‘larida uchqatning 15 turi o‘sadi. MDH hududida 30 dan ortiq turlari uchraydi. O‘rta Osiyoda 17 ta [6], O‘zbekistonda 12 ta [7] ta turi uchraydi

Uchqatlar qishga chidamli, ularning gullari mayin, va mevalari samarali, ba‘zi turlariniki iste‘molga yaroqli. Mevalarini ovchi qushlar yeyishadi, ba‘zi turlarning mevalari iste‘molga yaroqli. Shimoliy Amerika, Xitoy, Yaponiya va shimoliy yarimsharning boshqa mintaqalaridan bizning mamlakatimizga 100 ga yaqin uchqatlar moslashtirilgan. 1736 yildan beri uchqatlarni yetishtirish bo‘yicha olib borilgan ishlar Sobiq ittifoq hududidagi BIN Botanika bog‘ida (Leningrad), 112, Sobiq ittifoq hududining AN Fanlar Akademiyasining Bosh botanika bog‘ida (Moskva) 100 ga yaqin Markaziy Respublika botanika bog‘ida (Kiyev) va boshqa ilmiy markazlarda - 50 ga yaqin tur moslashtirilgan.[1]

Uchqatlarning sistematikasi bilan mashhur Botanik olimlar K. Linney, A.P. Dekandoli va A. Rederlar (1735) shug‘ullanishgan. Uchqatlarning sistematikada tuzatishlar va takomillashtirishlar sovet olimlari A.I. Poyarkova, G.N. Zaytsev (1957), N.V. Ryabova (2008) tomonidan kiritilgan. O‘simlikning botanik tasnifi ustida olib borilgan tadqiqotlar I.A. Korotki, A.N. Rasshepkin, N.M. Bochkarnikova (1975), S.P. Pogiba (1987), K. Kelt, K. Kast (1999), R.N. Koresheva (1987), M.T. Mazurenko (1967), N.L. Mextiyeva (1990), V.V. Lukisha (1990), A.M. Mushegyan (1966), o‘simlikning introduksiyasi ustida olib borilgan tadqiqotlar M.A. Avena (1969), G.N. Kosolapova, S.V. Firsova (2001), D.R. Kostirko (1976), A.G. Kuklina (2002), A.A. Yunatov (1964) o‘simlikning sistematikasi ustida olib borilgan tadqiqotlar L.N. Voroshilov (1992), V.S. Ilin hamda N.A. Ilina (1989), Z.I. Luchnik (1966), I.A. Poyarkova (1958), o‘simlikning tarqalish areallari ustida I.K. Gidzyuk (1978) larning ishlari amaliy ahamiyatga ega.

**Tadqiqot metodlari** “O‘zbekiston Florasi” (1941-1962), “O‘rta Osiyo o‘simliklarining tavsifi” (1968-1993) monografiyalari bo‘yicha turlar aniqlandi. *Lonicera L* turkumi katalogi



A.L.Taxtadjan [2] sistematikasi muvofiq tuzildi. O‘.P. Pratorov, M.M. Nabiyevlar (2007) tomonidan O‘zbekiston florasi uchun taklif etgan yangi tizim asosida joylashtirildi. Turlarning hayotiy shakllarini aniqlashda I.G. Serebryakov (1964), K. C Raunkiur (1973) ishlarida keltirilgan tamoyillar asosida aniqlandi. Laboratoriya va dala tajribalari, fenologik, morfologik va bioekologik metodlardan foydalanildi.


**Natijalar va ularning tahlili.** Ushbu turkumga kiruvchi ayrim turlari quyidagilar: *Lonicera altamanii* (Altman uchqati), *Lonicera zeravschanica* (Zarafshon uchqati), *Lonicera olgae*(olga uchqati), *Lonicera bracteolaris*( Gulyonbargchali uchqat), *Lonicera caerulea* (Yashil uchqat), *Lonicera simulatrix* (Taqlidchi uchqat ), *Lonicera nummulariifolia* (Tangabarg uchqat ), *Lonicera korolkowii* (Korolkovi uchqati ), *Lonicera microphylla* (maydabargli uchqat), *Lonicera semenovii* (Semenov uchqati ), *Lonicera.heterotricha* (har xil sochli uchqat), *Lonicera .heterophylla* (turli yaproqli uchqat), *Lonicera paradoxa* (g‘alati uchqat), *Lonicera tatarica* (tatar uchqati), *Lonicera japonica* (yapon uchqati), *Lonicera caprifolium* (xushbo‘y uchqat).[2]

Uchqatlarning butalari o‘rtacha 1 m gacha va undan yuqori 2 m gacha bo‘ladi. U tez o‘sib boradi, ekishdan keyingi 2-4-yillarda meva beradi. Odatda bir tupidan 1,5 kg dan 3 kg gacha rezavor mevalari yig‘ib olinadi. Yillik hosildorligi va o‘simlikning sovuqqa chidamliligi yuqori bo‘lib, haroratning - 40°C gacha tushganda ham tanasi zarar yetkazilmaganda bardosh bera oladi.[5] Uchqatlar uchun qarama-qarshi, oddiy va butun barglari cho‘zilgan-elliptik yoki keng nishtarsimon shaklida, o‘rtacha uzunligi (uzunligi 4,5-8,5 sm, kengligi 1,3-6,2 sm) qisqa bandli bo‘ladi. Bargning tashqi tomoni kutikula va mumsimon moddalar bilan, bir qavatli epidermis hujayralari bilan qoplangan. Yuza qatlamdagi kurtaklar ko‘pincha yashovchan emas, barglarning qo‘ltig‘i ostidagi 3 tadan 5 tagacha bir-biriga yaqin joylashgan kurtaklar vertikal-qismlil ko‘rinishda qator shaklida terilgan . Gullari ikki jinsli, hidli yoki hidsiz, ikki xil rangli to‘pgul yoki yarim soyabonsimon; Chirmashib o‘sadigan turlari gullari boshcha shaklidagi yoki bargning qo‘ltig‘ida joylashga boshqosimon to‘pgullarda yig‘ilgan. Har bir juft gulda ko‘pincha ikkita gul osti bargchalari va to‘rtta qo‘shilib o‘sgan gul osti barglari mavjud, gulkosachabarglari 5 tishchali, gultojbarglari oq, sariq, pushti yoki har xil dog‘li qizil, gultojbarglari ko‘pincha besh panjali naysimon, uzunligi 8 dan 60 mm gacha. O‘rtasidan o‘zining changchi ipi orqali bog‘langan ikki uyachali, 5 ta changchi; ustunchasi boshsimon tumshuqchali, ostki tugunchasi 2-5 uyali; kurtaklari osilgan, har bir uyachada 3 tadan 8 tagacha joylashgan.[4]

Mevalari ko‘pincha rezavor meva, juft-juft yoki to‘pmeva, gulning ostki barglari etdor, yuqori qismi zich va beso‘naqay, pishgan mevalari rangi qora, ko‘k, oq, qizil yoki to‘q sariq. Qariyb barcha uchqatlar erta gullaydigan butalardir (aprel-may oylarida gullaydi), ko‘pchilik turlari ko‘p va uzoq gullab yashovchanligi bilan farqlanadi (masalan, chirmashib o‘sovchi uchqatlarning kechki shakli iyundan oktyabrgacha gullaydi).



1-rasm *Lonicera microphylla*(maydabargli uchqat) 2-rasm *Lonicera tatarica* (tatar uchqati)



**3-rasm Lonicera microphyllaning gulining tuzilishi**



**4-rasm Lonicera microphyllaning mevasining tuzilishi Toshkent Botanika bog'ida olib borilgan tadqiqot ishlaridan fotolavhalar**

**Xulosa.** Tadqiqotlar davomida O'zbekiston hududida uchrovchi *Lonicera* L turkumi vakillari tarqalishi, tuzilishi, ahamiyati o'rganildi. Toshkent botanika bog'ida 1036 daraxt va butalar mavjud bo'lib, 20ta tur *Lonicera* turkum vakillariga to'g'ri keladi. Shu turlardan 12 tasi introdutsent, 8 tasi esa mahalliy tur hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Зайцев Т.Н. Интродукция жимолости в Ленинград. - Тр. Бот. ин-та АН СССР, 1962. Сер. VI, вып.8, 184-275с.
2. Голоскоков В.П. Род *Lonicera* L. - В кн.: флора Казахстана. Алмата: Издательство АН КазССР, 1965, т. 8, 222-244с.
3. Воронцов М.Т. Жимолости. - Цветоводство, 1970, N 3, 20с
4. Плеханова М.Н. Актинидия, лимонник, жимолость. J1.: Колос, 1982. 112с.
5. Куклина А.Г. Уход за жимолостью. Кладез-Букс. Москва 2006.-34с.
6. Определитель растений Средней Азии: Критический конспект флоры. Т. XI: справочник. – Ташкент: Фан, 2015. – 456 с.
7. Флора Узбекистана\ *Caprifoliaceae* \ Сенников А.Н., Тожибаев К.Ш., Каримов Ф.И.\ Т. 3.-2019. с. 47–96
8. [www.floruz.uz](http://www.floruz.uz)
9. <http://www.plantarium.ru>
10. <http://www.gbif.org>